

“O`zkiyosanoat” AJ tomonidan 9-dekabr – “Butunjahon korrupsiyaga qarshi kurashish” kuniga bag`ishlangan tadbir tashkil etildi

// 09 December 2021 yil

<https://special.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/9-dekabr>



Bugun “O`zkiyosanoat” aksiyadorlik jamiyati tomonidan 9-dekabr – “Butunjahon korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan tadbir tashkil etildi.

Tadbirda “O`zkiyosanoat” AJ rahbar-xodimlari, O`zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi boshqarma prokurori N.Sharipov, O`zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi mas’ul xodimi M.Asrorov va tizimdagi korxonatashkilotlar ishtirok etdi.

Mazkur sana dunyo mamlakatlari tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2003-yil 21-noyabrdagi rezolyutsiyasiga muvofiq 2004-yildan boshlab keng miqyosda nishonlab kelinadi. Xususan, mamlakatimizda ham shu sanaga bag`ishlab, har yili turli tadbirlar tashkil etilgan holda, korrupsiya illatiga birgalikda qarshi kurashish ishlari amalga oshirib kelinmoqda.

So`nggi yillarda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning rahbarligida mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi samarali kurashni tashkil etish, bu illatga batamom chek qo`yish borasida keng ko`lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shubhasiz, korrupsiya darajasini keskin pasaytirish, albatta, mamlakatimiz oldida turgan strategik vazifadir.



Tadbir avvalida "O`zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining birinchi o`rinbosari O.Temirov so`zga chiqib, tashkilot tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma`lumot berdi. Jumladan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 27-maydagi "O`zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi PF-5729-sonli Farmoni talablari asosida "O`zkimyosanoat" AJda Komplayens xizmati tashkil etilganligi va "Yo`l xaritasi" ishlab chiqilganligi, shuningdek, mazkur sohada "KPMG" xalqaro auditorlik tashkiloti bilan hamkorlik yo`lga qo`yilganligi hamda dasturga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish bo`yicha ichki me`yoriy hujjatlar, ya`ni "Korrupsiyaga qarshi siyosat", "Axloq kodeksi", "Manfaatlar to`qnashuvini boshqarish siyosati" kabi 20 yaqin ichki me`yoriy hujjatlar qabul qilinganligi ta`kidlab o`tiladi.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida komplayens nazorat tizimi bosqichma-bosqich kimyo sanoati korxonalariga tatbiq etilmoqda. Jumladan, "Navoiyazot", "Farg`onaazot", "Dehqonobod kaliy zavodi", "Maksam-Chirchiq" AJlarida, "Birinchi rezinotexnika zavodi", "O`zkiyoimpeks" MChJlarida va "Qo`ng`irot soda zavodi" MChJ QKda komplayens nazorat tizimi o`z faoliyatini yuritmoqda, "O`zkimyosanoatloyiha", "Ammofos-Maksam" AJlarda mazkur tizimga xodimlar tanlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Jamiyat va tizim korxonalari xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida komplayens xizmati xodimlari va huquq-tartibot organlari xodimlari ishtirokida joriy yilda jami 120 dan ortiq tushuntirish-profilaktik tadbirlari amalga oshirildi.

Joriy yilning noyabr oyida ISO 37001:2016 xalqaro standart talablariga muvofiq "CERT International" xalqaro trening kompaniyasi mutaxassislari tomonidan "O'zkimyosanoat" AJning korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimi auditdan muvaffaqiyatli o'tdi va hozirgi kunda sertifikatni rasmiylashtirish bo'yicha tadbirlar amalga oshirilmoqda.



Tadbir davomida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi mas'ul xodimi M.Asrorov va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi boshqarma prokurori N.Sharipovlar tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan ma'lumot berdilar.

Ma'ruzachilar tomonidan O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar to'g'risida batafsil ta'kidlab o'tildi. Jumladan, qonunchilik ijrosi ustidan nazorat yo'nalishida joriy yilning o'tgan davrida o'tkazilgan tekshirishlarda 332 mingga yaqin prokuror nazorati hujjatlari qo'llanilganligi, tegishli idoralarga 16 mingdan ortiq taqdimnomalar kiritilib, 260 ming nafardan ortiq fuqaroning huquqi tiklanganligi ta'kidlab o'tildi.

Tadbir so'ngida ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga ma'ruzachilardan javob oldilar.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati